

Toshkent shahri 01.08.2023 y. Fiskal ma'lumotlar operatori xizmatlarini ko'rsatish va maxsus dasturiy ta'minot o'rnatilgan fiskal modulni olish uchun OMMAVIY OFERTA	г. Ташкент 01.08.2023г. ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА на оказание услуг оператора фискальных данных и на получение программного обеспечения на фискальном модуле
Ushbu ommaviy oferta O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimi qo'llanilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 23-noyabrdagi 943-son qaroriga (Vazirlar Mahkamasining "Soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son qarori bilan kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda) (bundan buyon matnda – qaror deb yuritiladi) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi "Yangi texnologiyalar" ilmiy-axborot markazi" DUK (bundan buyon matnda fiskal ma'lumotlar operatori deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Bosh direktor Sh.S.Qayumovning yuridik shaxslar, yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlar (bundan buyon matnda tadbirkorlik sub'ektlari deb yuritiladi) bilan ushbu ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlarda fiskal ma'lumotlar operatori xizmatini ko'rsatish, shuningdek, fiskal moduldagi dasturiy ta'minotni olish bo'yicha shartnoma tuzishga rasmiy ommaviy ofertasi (taklif) hisoblanadi. Ommaviy oferta Internet tarmog'idagi fiskal ma'lumotlar operatorining saytida www.ofd.uz elektron manzilda joylashtirilgan vaqtdan e'tiboran kuchga kiradi. Ommaviy oferta saytda uni qayta chaqirib olish haqidagi rasmiy xabar joylashtirilgunga qadar amalda bo'ladi. Fiskal ma'lumotlar operatori ommaviy oferta shartlariga o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi va (yoki) istalgan vaqtda o'z xohishiga ko'ra taklifni qaytarib olish huquqiga ega, bu Internet tarmog'idagi fiskal ma'lumotlar operatorining elektron manzili www.ofd.uz da aks etadi. Fiskal ma'lumotlar operatori tomonidan Ommaviy ofertaga kiritilgan o'zgartirishlar, ular Internet tarmog'idagi fiskal ma'lumotlar operatorining elektron manzil www.ofd.uz ga joylashtirilganidan so'ng (agar bunday joylashtirishda o'zgartirishlarning kuchga kirishi bo'yicha qo'shimcha ravishda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa) kuchga kiradi. Agar fiskal ma'lumotlar operatori xizmatini ko'rsatish, shuningdek maxsus dasturiy ta'minot o'rnatilgan fiskal modulni olish	Настоящая публичная oferta в соответствии со ст. 369 Гражданского кодекса Республики Узбекистан и постановлением Кабинета Министров от 23 ноября 2019г. № 943 «О мерах по обеспечению применения онлайн контрольно-кассовых аппаратов и системы виртуальной кассы» (с учетом изменений, внесенных постановлением Кабинета Министров от 20 ноября 2020г. №736 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию налогового администрирования») (далее – постановление) является официальным предложением – ГУП «Научно-информационный центр Янги технологиялар» при Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан (далее – Оператор фискальных данных), в лице Генерального директора Ш.С.Каюмова, действующего на основании Устава, на заключение с юридическими лицами, индивидуальными и семейными предпринимателями (далее – субъекты предпринимательства) договора на оказание услуг оператора фискальных данных, а также на получение программного обеспечения на фискальном модуле на условиях, предусмотренных настоящей публичной offerтой. Публичная oferta вступает в силу с момента её размещения на сайте оператора фискальных данных в сети Интернет по адресу: www.ofd.uz. Публичная oferta имеет силу до размещения на сайте официального извещения о её отзыве. Оператор фискальных данных оставляет за собой право внести изменения в условия Публичной offerты и (или) отозвать offerту в любой момент по своему усмотрению, что отражается на сайте оператора фискальных данных в сети Интернет по адресу: www.ofd.uz. Изменения, внесённые оператором фискальных данных в Публичную offerту, вступают в силу после их размещения на сайте оператора фискальных данных в сети Интернет по адресу: www.ofd.uz, если иной срок вступления изменений в силу не определен дополнительно при таком размещении. Условия настоящей публичной offerты являются едиными для всех обратившихся к оператору фискальных

uchun Tomonlar tarafidan alohida tuzilgan shartnomada (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) boshqa shartlar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Ommaviy oferta shartlari fiskal ma'lumotlari operatoriga murojaat qilgan barcha yuridik shaxslar yoki yakka tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar uchun yagona bo'ladi.

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Ushbu shartnomada quyidagi atamalar qo'llaniladi:

fiskal ma'lumotlar operatori (bundan buyon matnda FMO deb yuritiladi) – onlayn rejimida fiskal ma'lumotlarni mustaqil va doimiy ravishda qabul qilish, qayta ishlash va saqlash ishlarini bajaruvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi “Yangi texnologiyalar” ilmiy-axborot markazi” DUK;

foydalanuvchi – sotilgan tovarlar (bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar) uchun aholi bilan pulli hisob kitoblarni amalga oshirishda onlayn-NKM va (yoki) virtual kassadan foydalanadigan yuridik shaxslar yoki yakka tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar;

texnik xizmat ko'rsatish markazi (bundan buyon matnda TXKM deb yuritiladi) – onlayn-NKM va (yoki) virtual kassalarga uzluksiz servis xizmati ko'rsatuvchi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Davlat reestriga kiritilgan yuridik shaxslar;

onlayn nazorat-kassa mashinalari (bundan buyon matnda onlayn-NKM deb yuritiladi) – fiskal modulga bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lgan, fiskal hujjatlarni hosil qiluvchi, fiskal hujjatlarni fiskal ma'lumotlar operatoriga real vaqt rejimida uzatishni ta'minlovchi va qog'ozga chop etuvchi elektron hisoblash mashinalari, boshqa qurilmalar va ularning komplekslari;

virtual kassa – fiskal modulga bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lgan, fiskal hujjatlarni hosil qiluvchi va hosil qilingan fiskal hujjatlarni fiskal ma'lumotlar operatoriga real vaqt rejimida uzatishni ta'minlovchi, cheklarni qog'ozga chop etish yoki ularni elektron shaklda yuborish funksiyasiga ega bo'lgan dasturiy mahsulot va ularning komplekslari;

fiskal modul – fiskal ma'lumotlarning kriptografik himoyasini ta'minlaydigan maxsus

данных юридических лиц или физических лиц, зарегистрированных в качестве индивидуального предпринимателя, если иные условия не предусмотрены договором на оказание услуг оператора фискальных данных, а также на получение программного обеспечения на фискальном модуле (далее – договор), заключённым сторонами отдельно.

1. ТЕРМИНЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ

1.1. В настоящем договоре используются следующие термины:

оператор фискальных данных (далее – ОФД) – ГУП «Научно-информационный центр «Янги технологиялар» при Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан, самостоятельно и на постоянной основе осуществляющий приём, обработку, хранение фискальных данных в режиме онлайн;

пользователь – юридические лица или физические лица, зарегистрированные в качестве индивидуального предпринимателя, использующие онлайн контрольно-кассовую машину и (или) виртуальную кассу при осуществлении расчётов с населением за реализованные товары (выполненные работы и оказанные услуги);

центр технического обслуживания – (далее – ЦТО) – юридические лица, осуществляющие бесперебойное обслуживание онлайн контрольно-кассовых машин и (или) виртуальных касс, зарегистрированных в Государственном реестре в порядке, установленном законодательством;

онлайн контрольно-кассовая машина (далее – онлайн-ККМ) – электронные вычислительные машины, иные устройства и их комплексы, имеющие возможность подключения фискального модуля, формирующие фискальные документы, обеспечивающие передачу фискальных документов в режиме реального времени оператору фискальных данных и имеющие возможность печати фискальных документов на бумажных носителях;

виртуальная касса – программный(ые) продукт(ы) и их комплексы, имеющие возможность подключения фискального модуля, формирующие фискальные документы, обеспечивающие передачу фискальных документов в режиме реального времени оператору фискальных данных с функцией печати или отправки чеков в электронном виде;

фискальный модуль – специализированное физическое устройство,

himoyalangan dasturiy ta'minotga ega bo'lgan, FMO tomonidan ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan fizik qurilma; maxsus dasturiy ta'minot o'rnatilgan fiskal modul (bundan buyon matnda MDTFM deb yuritiladi) – ixtisoslashtirilgan fizik qurilmada (fiskal modulda) FMO tomonidan ishlab chiqilgan maxsus himoyalangan dastur; FMO xizmatlari – maxsus uskunalar bilan jihozlangan milliy kriptografik algoritmlar asosida axborot xavfsizligini ta'minlash uchun kriptografik usullardan foydalangan holda, real vaqt rejimida axborot va telekommunikasiya tarmoqlari orqali onlayn-NKM va virtual kassalarga ulangan MDTFM ma'lumotlarini uzluksiz olish, qayta ishlash va saqlashni ta'minlash bo'yicha FMO tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar; Virtual fiskal modul raqami - operator tomonidan ochiq kalit sertifikatini ko'rinishida beriladigan maxsus dasturiy ta'minot; Marketpleys – FMO tizimiga bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lgan, operatorga taqdim qilgan chek ma'lumotlari asosida onlayn rejimda fiskal belgilarni qabul qiluvchi, cheklarni elektron shaklda xaridorlarga yuborish funksiyasiga ega bo'lgan texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlari vositasida naqd yoki naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tizimi; Marketpleys reestri - qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Davlat reestriga kiritilgan Marketpleyslar ro'yxati. Marketpleys foydalanuvchisi - tovarlar (bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar) uchun aholi bilan pulli hisob kitoblarni amalga oshirishda fiskal ma'lumotlarni Marketpleys serveri orqali FMOga yuboruvchi yuridik shaxslar yoki yakka tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar.	имеющее специально защищённое программное обеспечение, разработанное ОФД, обеспечивающее криптографическую защиту фискальных данных; программное обеспечение на фискальном модуле (далее – ПОФМ) – разработанное ОФД специально защищённое программное обеспечение на специализированном физическом устройстве (фискальном модуле); услуги ОФД – услуги, оказываемые со стороны ОФД, обеспечивающего непрерывное получение, обработку и хранение данных из ПОФМ, подключённых к онлайн-ККМ и виртуальным кассам, через информационные и телекоммуникационные сети в режиме реального времени, используя криптографические методы для обеспечения информационной безопасности на основе национальных криптографических алгоритмов, оснащённых специальным оборудованием. Номер виртуального фискального модуля – специальное программное обеспечение, выдаваемое оператором в виде сертификата открытого ключа; Маркетплейс – наличный или безналичный расчёт с помощью электронных платёжных документов с использованием технических средств, информационных технологий и услуг информационных систем, который имеет возможность подключения к системе ОФД, получает фискальные отметки в режиме онлайн на основании чековой информации, предоставленной оператору фискальных данных, а также имеет функцию отправки чеков клиентам в электронном виде; Реестр маркетплейса - перечень торговых площадок, включённых в Государственный реестр в порядке, установленном законодательством. Пользователь маркетплейса - юридические лица или физические лица, зарегистрированные в качестве индивидуального предпринимателя, направляющие фискальные данные ОФД через сервер торговой площадки при ведении платных расчётов с населением за товары (выполненные работы и оказанные услуги).
2. Shartnomani tuzish tartibi 2.1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 364, 370-moddalariga muvofiq Shartnoma ushbu Ommaviy oferta aksept yo'li orqali, ya'ni ushbu ommaviy oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilish orqali tuziladi. 2.2. Aksept ushbu ommaviy oferta shartlariga muvofiq foydalanuvchi tomonidan fiskal modul xizmatlaridan foydalanishni boshlash	2. Порядок заключения договора 2.1. В соответствии со ст.ст.364, 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан Договор заключается путём акцепта настоящей публичной оферты, то есть выражением полного и безоговорочного принятия условий настоящей публичной оферты. 2.2. Акцептом является начало пользования пользователем услугами фискального модуля в соответствии с

hisoblanadi, bu esa ushbu ommaviy oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilish (aksept) dan dalolat beradi.

2.3. Akseptdan oldin foydalanuvchi ushbu ommaviy ofertaning barcha shartlari bilan tanishib chiqishi shart. Akseptni amalga oshirgan foydalanuvchi ushbu ommaviy ofertaning barcha shartlari bilan tanishgan va ularni qabul qilgan deb hisoblanadi, bunda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366, 370-moddalariga muvofiq shartnoma ushbu ommaviy oferta shartlariga ko'ra yozma ravishda tuzilgan va ikki tomondan imzolangan teng shartnoma (bundan buyon matnda – shartnoma deb yuritiladi) hisoblanadi. Ushbu ommaviy ofertada ko'rsatilgan shartlarda shartnoma tuzish vaqti FMO xizmatlari uchun to'lovni (oldindan to'lovni) amalga oshirish hisoblanadi.

2.4. Ushbu ommaviy oferta unda ko'rsatilgan sanadan boshlab kuchga kiradi. Foydalanuvchi tomonidan xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatish to'g'risida ariza kelib tushmagan taqdirda ommaviy oferta keyingi yillar uchun avtomatik ravishda qabul qilingan hisoblanadi va qonunchilikda hamda mazkur ommaviy oferta shartlarida belgilangan to'lovlarni amalga oshirishga foydalanuvchining roziligini bildiradi.

2.5. Agar zaruriyat bo'lsa yoki tomonlarning birining talabiga binoan tomonlar o'rtasida alohida shartnoma tuzilishi mumkin.

3. Shartnoma mazmuni

3.1. Ushbu ommaviy oferta va shartnomaning mazmuni – FMO xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek, MDTFMni qabul qilish, kelgusida aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda onlayn-NKM va virtual kassa foydalanuvchisi tomonidan qaror talablariga muvofiq ushbu xizmatlar uchun to'lov qilish hisoblanadi.

3.2. FMO xizmatlari foydalanuvchi tomonidan tegishli to'lovlar amalga oshirilgandan hamda onlayn-NKM yoki virtual kassa bilan MDTFM davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 2 (ikki) ish kuni ichida faollashtiriladi.

Shartnoma amal qiladigan keyingi yillar uchun FMO xizmatlarini qayta faollashtirish talab etilmaydi.

3.3. FMO shartnoma shartlariga binoan Qarorda ko'zda tutilgan tartibda xizmat ko'rsatadi.

условиями настоящей публичной оферты, что свидетельствует о полном и безоговорочном принятии (акцепте) условий настоящей публичной оферты.

2.3. До совершения акцепта пользователь обязан ознакомиться со всеми условиями настоящей публичной оферты. Пользователь, совершивший акцепт, считается ознакомившимся и согласным со всеми условиями настоящей публичной оферты, при этом договор в соответствии со ст.ст. 366, 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан считается заключённым в письменной форме на условиях настоящей публичной оферты и является равносильным договору, подписанному двумя сторонами (далее – Договор). Моментом заключения договора на условиях, указанных в настоящей публичной оферте, является осуществление оплаты (предоплаты) за услуги ОФД.

2.4. Данная публичная оферта вступает в силу с указанной в ней даты. В случае не поступления заявления пользователя о прекращении предоставления услуг, публичная оферта считается автоматически принятой за последующие годы и означает согласие пользователя на осуществление платежей, предусмотренных законодательством и условиями настоящей публичной оферты.

2.5. При необходимости или по требованию одной из сторон, между сторонами может быть заключён отдельный договор.

3. Предмет договора

3.1. Предметом настоящей публичной оферты и договора является оказание услуг ОФД, а также на получение ПОФМ и оплата данных услуг пользователем, с целью осуществления последним в дальнейшем денежных расчётов с населением через онлайн-ККМ и (или) виртуальную кассу в соответствии с требованиями Постановления.

3.2. Услуги ОФД активируются в течение 2 (двух) рабочих дней после оплаты данных услуг и регистрации онлайн-ККМ или виртуальной кассы с ПОФМ в органах государственной налоговой службы. При действии Договора за последующие годы повторная активизация услуг ОФД не требуется.

3.3. ОФД оказывает услуги на условиях договора в порядке, предусмотренном Постановлением.

4. Xizmatlar narxi va hisob-kitoblash tartibi

4.1. Qarorga muvofiq, FMO xizmatlari uchun foydalanuvchi tomonidan yilda bir marta O'zbekiston Respublikasida belgilangan tartibda amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) baravari (to'lov kunidagi) miqdorida to'lov amalga oshiriladi. Mazkur Shartnoma uchun to'lov amalga oshiriladigan yil sifatida Shartnoma tuzilgan kundan boshlab hisoblanadigan 365 kun tushuniladi.

FMOga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli xizmatlar uchun to'lov amalga oshirilgan kundan keyin 2 (ikki) ish kuni ichida FMO xizmatlari faollashtirilmagan bo'lsa va O'zbekiston Respublikasida bazaviy hisoblash miqdori o'zgarsa, foydalanuvchi tomonidan oldin to'langan to'lov va oshirilgan bazaviy hisoblash miqdori o'rtasidagi farq qo'shimcha ravishda to'lab berilgandan so'ng FMO xizmatlari faollashtiriladi.

4.2. Onlayn-NKM va (yoki) virtual kassadan foydalanganlik uchun FMO xizmatlari uchun to'lov foydalanuvchi tomonidan ushbu xizmatlar umumiy qiymatining **100 (yuz) foizi** miqdorida oldindan to'lov shaklida amalga oshiriladi.

4.3. Shartnoma bo'yicha barcha to'lovlar milliy valyutada (so'mda), naqd pulsiz to'lov usuli orqali, tadbirkorlik sub'ektining hisob-kitob hisobvarag'idan mablag'larni FMO hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining "Soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son (4-ilova "Vazirlar Mahkamasining "Onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimi qo'llanilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 23-noyabrdagi 943-son qaroriga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar") qaroriga muvofiq 2021-yil 1-martdan OFD tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlar foydalanuvchilar tomonidan naqd pulda va naqd pulsiz ko'rinishda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

4.4. Narx qat'iy hisoblanadi va to'lov kunidagi qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o'zgarishi munosabati bilangina o'zgaradi.

4.5. Qarorda belgilangan FMO xizmatlari narxiga nisbatan ortiqcha to'langan summa Foydalanuvchining yozma so'rovnomasi asosida qaytarilishi yoki FMO xizmatlari to'lovi bo'yicha bo'nak sifatida kelgusi to'lovlar

4. Стоимость услуг и порядок расчётов

4.1. В соответствии с постановлением оплата услуг ОФД производится пользователем один раз в год в размере 1 (однократного) размера базовой расчетной величины (на день оплаты), действующего в установленном порядке в Республике Узбекистан. Под годом, в котором производится оплата по данному договору, понимается 365 дней, исчисляемых со дня заключения договора. Если услуги ОФД не были активированы в течение 2 (двух) рабочих дней после дня оплаты услуг в связи с обстоятельствами, не зависящими от ОФД, и сумма базовой расчетной величины в Республике Узбекистан изменилась, услуги ОФД активируются после дополнительной оплаты разницы между суммой уплаченной пользователем ранее, и суммой увеличенного размера.

4.2. Оплата услуг ОФД для использования онлайн-ККМ и (или) виртуальной кассы производится пользователем в виде предоплаты в размере **100 (сто) процентов** от общей стоимости данных услуг.

4.3. Все расчёты по договору осуществляются в национальной валюте (сум), безналичным способом оплаты, путём перечисления денежных средств с расчётного счета субъекта предпринимательства на расчётный счёт ОФД.

В соответствии с постановлением Кабинета Министров от 20.11.2020г. №736 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию налогового администрирования» (приложение №4 «О внесении изменения и дополнения в Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 23.11.2019г. №943 «О мерах по обеспечению применения онлайн контрольно-кассовых аппаратов и системы виртуальной кассы») с 01.03.2021г. платежи за услуги, предоставляемые ОФД, могут быть осуществлены в наличной и безналичной формах пользователями в установленном порядке.

4.4. Цена является неизменной и может изменяться только в связи с изменением размера базовой расчётной величины, устанавливаемой Законодательством Республики Узбекистан на день оплаты.

4.5. Излишне уплаченная сумма, по сравнению со стоимостью услуг ОФД, установленной Постановлением, подлежит возврату на основании письменного запроса пользователя,

hisobiga o'tkazilishi mumkin.	либо будет зачислена в счёт погашения предстоящих платежей по оплате услуг ОФД в качестве предоплаты.
5. Tomonlarning majburiyatlari va huquqlari 5.1. FMO quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi: 5.1.1. fiskal ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash; 5.1.2. fiskal ma'lumotlarni olingan kundan boshlab besh yil davomida saqlash; 5.1.3. fiskal ma'lumotlar bazasining zaxira nusxalarini saqlashni ta'minlash; 5.1.4. MDTFM foydalanuvchisining shaxsiy ma'lumotlarining himoyasini ta'minlash; 5.1.5. internetda shaxsiy maxsus axborot tizimining barqaror ishlashini ta'minlash; 5.1.6. QR kodi orqali onlayn-NKM va virtual kassa cheklarining haqiqiylikini tekshirish imkonini beruvchi axborot tizimlari va mobil ilovalarning uzluksiz ishlashi bo'yicha choralar ko'rish; 5.1.7. MDTFM va onlayn-NKM va (yoki) virtual kassa dasturlari o'rtasida ma'lumot almashish talablari va shakllarini ishlab chiqish; 5.1.8. O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek shartnoma shartlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.	5. Обязанности и права сторон 5.1. ОФД обязуется: 5.1.1. обеспечить безопасность фискальных данных; 5.1.2. хранить фискальные данные в течение пяти лет с момента их получения; 5.1.3. обеспечить ведение резервных копий базы фискальных данных; 5.1.4. обеспечить защиту персональных данных пользователя ПОФМ; 5.1.5. обеспечить стабильную работу собственной специальной информационной системы в Интернете; 5.1.6. предпринять меры по бесперебойному функционированию информационных систем и мобильного приложения, позволяющего проверить посредством QR-кода подлинность чеков онлайн-ККМ и виртуальной кассы; 5.1.7. разработать требования и формы обмена данными между ПОФМ и программным обеспечением онлайн-ККМ и (или) виртуальной кассы; 5.1.8. выполнять иные обязанности в соответствии с другими нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан, а также условиями договора.
5.2. FMO quyidagi huquqqa ega: 5.2.1. vakolatli organ bilan birgalikda savdo va xizmat ko'rsatishning stasionar punktlarida onlayn-NKM va virtual kassaning to'g'ri ishlashini o'rganish, shuningdek, zarur hollarda o'rganish uchun ekspert tashkilotlarini jalb qilish. 5.2.2. Foydalanuvchidan shartnoma shartlarini, shuningdek Qaror va qonun hujjatlari talablarini bajarilishini, shu jumladan FMO xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirilishini talab qilish. 5.2.3. Agar Foydalanuvchi Shartnoma shartlari va Qaror bilan uning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni buzsa, jumladan FMO xizmatlari uchun tegishli to'lovlarni amalga oshirmaslik yoki lozim darajada amalga oshirmaslik, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar foydalanuvchi tomonidan bartaraf etilgunga qadar xizmat ko'rsatilishini to'xtatib qo'yish (tugatish).	5.2. ОФД вправе: 5.2.1. совместно с уполномоченным органом изучать правильность работы онлайн-ККМ и виртуальной кассы в стационарных пунктах торговли и оказания услуг, а также в случае необходимости привлекать для изучения экспертные организации. 5.2.2. требовать от Пользователя выполнение условий Договора, а также требований Постановления и законодательства, в том числе оплаты услуг ОФД. 5.2.3. в случае, нарушения Пользователем условий Договора и Постановления, в соответствии с которыми на него возложены обязательства, включая неоплату или ненадлежащую оплату услуг ОФД, приостановить (прекратить) оказание этих услуг, до устранения допущенных нарушений.

5.3. Foydalanuvchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

5.3.1. O'zining O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan vazifalarini to'g'ri va vijdonan bajarish;

5.3.2. shartnomada nazarda tutilgan tartib va shartlarda FMO xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida va lozim darajada amalga oshirish;

5.3.3. foydalanuvchi faoliyati to'xtatilganda yoki tugatilganda, shuningdek, nosozliklar aniqlanganda, MDTFM xotirasi ma'lumotlar bilan to'lganda yoki boshqa nazarda tutilmagan hollarda olingan MDTFMni TXKMga qaytarish;

5.3.4. onlayn-NKM yoki virtual kassa yo'qolgan yoki o'g'irlangan holatlarda, bir ish kunidan kechiktirmasdan, shartnoma tuzilgan TXKMga xabar berish;

5.3.5. onlayn-NKM va (yoki) virtual kassa ro'yxatdan o'tgan savdo (xizmat ko'rsatish) nuqtasining manzili o'zgarganda, onlayn-NKM yoki virtual kassani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish uchun, uch ish kuni mobaynida kelgan holatda yoki elektron shaklda TXKMga yangi manzil bo'yicha savdo (xizmat ko'rsatish) nuqtaning mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari bilan birga ariza taqdim etish;

5.3.6. faoliyat to'xtatilgan, tugatilgan, nosoz bo'lgan, amal qilish muddati tugagan, MDTFM xotirasi ma'lumotlar bilan to'lgan, onlayn-NKM va (yoki) virtual kassani almashtirish zaruriyati bo'lganda yoki boshqa ko'zda tutilmagan hollarda TXKMga ariza taqdim etish;

5.3.7. har kuni ish boshlanishidan oldin onlayn-NKM va (yoki) virtual kassaning umumiy texnik holatini, sozligini, shuningdek sanani va vaqtni aniqligini tekshirish;

5.3.8. Offlayn rejimida shakllangan chek ma'lumotlarini 24 soat ichida FMOga uzatilishini ta'minlash;

5.3.9. agar onlayn-NKM yoki virtual kassadan foydalanish jarayonida nosozliklar yuzaga kelsa, bu haqda TXKM call-markaziga qo'ng'iroq qilish yoki tashrif buyurish orqali xabar berish;

5.3.10. xaridordan qaytarilgan mahsulotni qabul qilganda ikki nusxada yukxati rasmiylashtirish, ulardan birini tovar hisobotiga tikib qo'yish va ikkinchi nusxani xaridorga topshirish;

5.3.11. Qarorga muvofiq qaytarilgan summaga pul mablag'larini qaytarish to'g'risidagi dalolatnomani rasmiylashtirish.

5.3. Пользователь обязуется:

5.3.1. надлежаще и добросовестно выполнять свои обязанности, предусмотренные договором и действующим законодательством Республики Узбекистан;

5.3.2. производить своевременную и надлежащую оплату услуг ОФД, в порядке и на условиях, предусмотренных Договором;

5.3.3. вернуть ЦТО полученные ПОФМ, при прекращении деятельности пользователя или его ликвидации, а также неисправности, заполнения данными памяти ПОФМ или в других не предусмотренных случаях;

5.3.4. в случае утери или кражи онлайн-ККМ или виртуальной кассы в срок не позднее одного рабочего дня оповещать об этом ЦТО, с которым заключён договор;

5.3.5. при изменении адреса стационарного пункта, где зарегистрированы онлайн-ККМ и (или) виртуальная касса, в течение трёх рабочих дней в явочном порядке либо в электронном виде представить в ЦТО заявление вместе с копиями документов, подтверждающих наличие стационарного пункта по новому адресу, для внесения соответствующих изменений в данные о регистрации онлайн-ККМ или виртуальной кассы;

5.3.6. представить в ЦТО заявление при приостановлении деятельности, ликвидации, неисправности, окончании срока действия, заполнения данными памяти ПОФМ, необходимости замены онлайн-ККМ и (или) виртуальной кассы либо в других непредусмотренных случаях;

5.3.7. ежедневно до начала работы проверять общее техническое состояние, исправность онлайн-ККМ и (или) виртуальной кассы, а также точное указание даты и времени;

5.3.8. обеспечить передачу ОФД данных чека, сформированного в режиме оффлайн, в течение 24 часов;

5.3.9. в случае возникновения неисправности в процессе использования онлайн-ККМ или виртуальной кассы сообщить об этом звонком в call-центр ЦТО или в явочном порядке;

5.3.10. при приёме от покупателя возвращённого товара, оформить накладную в двух экземплярах, один из которых подшить к товарному отчёту, а второй передать покупателю;

5.3.11. на возвращённую сумму оформить акт о возврате денежных средств согласно Постановлению.

Xaridor tomonidan taqdim etilgan kassa cheklari qog'oz varag'iga yopishtirish va dalolatnoma bilan birgalikda buxgalteriyaga topshirish; 5.3.12. xaridorning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilgan yozma arizasi asosida bir bank kunidan oshmagan muddatda pul mablag'larini qaytarib berish; 5.3.13. kassadan pul qaytarilganda, xaridorning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilishi shart bo'lgan, xarajatlar kassa orderini rasmiylashtirish; 5.3.14. tovarlarni sotishdan olingan daromadga tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilgan taqdirda, xaridorga qaytarilgan pul miqdoriga tuzatishlar kiritish; 5.3.15. onlayn-NKM va (yoki) virtual kassani qo'llashda, FMO ma'lumotlarini real vaqt rejimida yetkazib berishning texnik imkoniyati bo'lmagan hollarda, shu jumladan, internetdagi vaqtinchalik nosozliklar tufayli, xaridorlarga (mijozlarga) 24 soat ichida offlayn rejimda xarid cheklarini berish; 5.3.16. TXKM tomonidan zaxira onlayn-NKM va (yoki) virtual kassa o'rnatilishidan oldin, davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tgan maxsus kvitansiya daftari asosida aholi bilan pul hisob-kitoblarni amalga oshirish; 5.3.17. MDTFMni o'zida qodirgan holda TXKMni o'zgartirganda tegishli dalolatnomalarni rasmiylashtirish; 5.3.18. TXKMni o'zgartirish chog'ida MDTFMning forma turi (smart card yoki USB-token) ham o'zgarsa shartnomaning 4.1-bandida nazarda tutilgan to'lovni amalga oshirish; 5.3.19. O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga va shartnoma shartlariga muvofiq majburiyatlarni bajarish.	Кассовые чеки, выданные покупателем, наклеиваются на лист бумаги и вместе с актом сдаются в бухгалтерию; 5.3.12. осуществить возврат денежных средств в течение срока, не превышающего одного банковского дня, на основании письменного заявления покупателя с указанием его фамилии, имени, отчества; 5.3.13. при возврате денег из кассы составить расходный кассовый ордер с обязательным указанием фамилии, имени, отчества покупателя; 5.3.14. при полном или частичном возврате товаров в доходы, полученные от реализации товаров, вносить корректировки на возвращённую покупателю денежную сумму; 5.3.15. при применении онлайн-ККМ и (или) виртуальной кассы, в случае отсутствия технической возможности доставки ОФД сведений в режиме реального времени, в том числе в связи с временными сбоями в сети Интернет, покупателям (клиентам) за произведённую покупку выдавать чеки в режиме оффлайн в течении 24 часов; 5.3.16. до установки резервной онлайн-ККМ и (или) виртуальной кассы со стороны ЦТО, осуществлять денежные расчёты с населением на основании специальной книжки квитанций, зарегистрированной в органах государственной налоговой службы; 5.3.17. в случае изменения ЦТО с сохранением у себя ПОФМ, оформить соответствующие акты; 5.3.18. при изменении ЦТО также меняется форма ПОФМ (smart card или USB-token), оплата производить оплату в порядке, предусмотренном пунктом 4.1. договора; 5.3.19. выполнять обязанности в соответствии с другими нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан и условиями договора.
5.4 Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega: 5.4.1. Davlat reestriga kiritilgan onlayn-NKM va (yoki) virtual kassalarni mustaqil ravishda sotib olish, shuningdek TXKMni erkin tanlash; 5.4.2. onlayn-NKM va (yoki) virtual kassani ro'yxatdan o'tkazish rad etilganda, ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, ro'yxatga olish uchun qayta murojaat qilish; 5.4.3. davlat soliq xizmati organlarining onlayn-NKM va (yoki) virtual kassani ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi xabarnomasi, shuningdek davlat soliq xizmati	5.4 Пользователь вправе: 5.4.1. самостоятельно приобретать внесённые в Государственный реестр онлайн-ККМ и (или) виртуальные кассы, а также свободно выбирать ЦТО; 5.4.2. при отказе в регистрации онлайн-ККМ и (или) виртуальной кассы, устранив указанные недостатки, повторно обратиться для регистрации; 5.4.3. обжаловать в установленном порядке уведомление органов государственной налоговой службы об отказе в регистрации онлайн-ККМ и (или) виртуальной кассы,

organlari mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish.	а также действия (бездействие) должностных лиц органов государственной налоговой службы.
6. Tomonlarning javobgarligi 6.1. Tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilanadi. 6.2. Xizmatlar uchun to'lov o'z vaqtida to'lanmasa, foydalanuvchi FMOga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov miqdorining 0,4 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. 6.3. FMO foydalanuvchi oldida shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda javobgar bo'ladi. 6.4. FMO quyidagi hollarda javobgar bo'lmaydi: FMOning aybisiz MDTFM buzilishi oqibatlar uchun; uchinchi tomon MDTFMDan foydalanishi natijasida ikkinchi tomonga yetkazilgan zarar uchun. 6.5. Onlayn-NKM va (yoki) virtual kassaning, shu jumladan Internet-aloqaning joriy holati uchun javobgarlik foydalanuvchiga shaxsan yuklatiladi (Internet-provayder yoki mobil aloqa operatorining ish faoliyatida yuzaga keladigan alohida texnik muammolar bundan mustasno). 6.6. Foydalanuvchi ushbu ommaviy ofertani akseptlash orqali FMOga xizmatlar bo'yicha to'lovlarni o'zining bank hisob varaqlari orqali to'lov talabnomasi (akseptli toki akseptsiz) qo'ygan holda undirib olish huquqini taqdim etadi.	6. Ответственность сторон 6.1. Мера ответственности сторон устанавливается действующим законодательством РУз. 6.2. В случае несвоевременной оплаты услуг ОФД пользователем, пользователь платит ОФД неустойку в размере 0,4% от суммы просрочки платежа за каждый день просрочки, но не более 50% от суммы просрочки. 6.3. ОФД несёт ответственность перед пользователем за неисполнение или ненадлежащее исполнение обязательств по договору, в порядке и размерах, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан. 6.4. ОФД не несёт ответственности: за последствия компрометации ПОФМ не по вине ОФД; за убытки, понесённые последним в результате использования третьими лицами ПОФМ. 6.5. Ответственность за текущее исправное состояние онлайн-ККМ и (или) виртуальной кассы, в том числе Интернет-связи, персонально возлагается на пользователя (за исключением отдельных технических проблем, возникающих в рабочей деятельности Интернет-провайдера или оператора мобильной связи). 6.6. Пользователь посредством акцепта настоящей публичной оферты предоставляет ОФД право взыскания со своего банковского счета платежей по услугам через платежное требование (акцептом и без акцепта).
7. Shartnomaning amal qilish muddati 7.1. Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan 30 kun oldin tomonlardan biri shartnomani bekor qilish bo'yicha boshqa tomonni xabardor etmagan taqdirda, shartnoma har bir keyingi yil uchun avtomatik ravishda tuzilgan hisoblanadi.	7. Срок действия договора 7.1. Договор считается автоматически заключенным на каждый следующий год, если ни одна из сторон не позднее чем за 30 дней до истечения срока действия договора не уведомит другую сторону о расторжении договора.
8. Talabnomalarni ko'rib chiqish tartibi 8.1. Shartnoma bo'yicha FMO majburiyatlari bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa, foydalanuvchi FMOga yoki vakolatli organga talabnoma bilan murojaat qiladi. 8.2. Talabnoma foydalanuvchi tomonidan yozma ravishda taqdim etiladi va belgilangan tartibda FMO ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. 8.3. FMO talabnoma olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay unga javob berishga majburdir. Talabnomaga javob	8. Порядок рассмотрения претензий 8.1. При неисполнении или ненадлежащем исполнении ОФД обязательств по договору, пользователь представляет ОФД или в уполномоченный орган претензию. 8.2. Претензия предъявляется пользователем в письменном виде и подлежит регистрации ОФД в установленном порядке. 8.3. ОФД обязан в не позднее 15 (пятнадцати) дней со дня получения претензии дать на неё ответ. Ответ на

buyurtma xat, telegraf, teletayp orqali, elektron shaklda yuboriladi yoki foydalanuvchiga tilxat asosida beriladi. 8.4. MDTFMning buzilishi natijasida kelishmovchiliklar kelib chiqqanda, FMO belgilangan tartibda ichki texnik tekshiruv o'tkazish huquqiga ega.	претензию отправляется заказным письмом, по телеграфу, телетайпу, электронном виде, либо вручается пользователю под расписку. 8.4. При разногласиях, возникших в результате компрометации программного обеспечение на ПОФМ, ОФД вправе провести внутреннее техническое расследование в установленном порядке.
9. Nizolarni hal qilish tartibi 9.1. Shartnomani bajarish bo'yicha barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tomonlar tarafidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu ommaviy oferta shartlariga muvofiq hal etiladi. Tomonlar kelisha olmagan kelishmovchiliklar FMO joylashgan joydagi sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.	9. Порядок разрешения споров 9.1. Все споры и разногласия по исполнению договора разрешаются сторонами в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан и условиями настоящей публичной оферты. Разногласия, по которым стороны не достигнут договорённости подлежат рассмотрению в судах по месту нахождения ОФД.
10. Fors major 10.1. Ushbu Ommaviy oferta tomonlarining o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarishlariga to'sqinlik qiladigan yengib bo'lmaz kuch ta'sir etgan taqdirda, masalan: yong'in, tabiiy ofatlar, urush, davlat organlari tomonidan faoliyatni taqiqlash yoki cheklash yoki boshqa shunga o'xshash holatlar yuz berganda, tomonlarning ushbu Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish vaqti yuzaga kelgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Bunday holatlarning kelib chiqishi tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishi kerak. Ushbu Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkoni bo'lmagan tomon 5 (besh) kalendar kunidan kechikmay, bunday holatlar yuzaga kelganligi va tugaganligi to'g'risida boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilishi kerak. 10.2. Agar fors-major holatlari bir oydan ko'proq davom etsa, har bir tomonlar ushbu Ommaviy ofertani bekor qilish huquqiga ega. Bunday holda, tomonlardan hech biri boshqa tomondan ushbu Ommaviy ofertani bekor qilish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega emas. Bunday holda, tomonlar o'rtasida Ommaviy ofertani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng 10 (o'n) kalendar kunidan kechiktirmay, qarzlar bo'yicha o'zaro hisob-kitob o'tkaziladi, ulardan biri tegishli yozma xabarnomani oladi. 10.3. Xabardor qilmaslik yoki o'z vaqtida xabar bermaslik, Tomonni ushbu Ommaviy	10.Форс мажор 10.1. При наступлении обстоятельств непреодолимой силы, препятствующих полному или частичному исполнению своих обязательств любой из Сторон по настоящей публичной оферты, а именно: пожара, стихийных бедствий, войны, запрещения или ограничения деятельности со стороны государственных органов или других подобных обстоятельств, сроки исполнения Сторонами их обязательств по настоящей публичной оферты отодвигаются соразмерно времени, в течение которого действуют такие обстоятельства. Наступление таких обстоятельств должно быть подтверждено соответствующими компетентными органами. Сторона, для которой из-за обстоятельств непреодолимой силы создалась невозможность исполнения своих обязательств по настоящей публичной оферты, должна не позднее 5 (пяти) календарных дней в письменной форме извещать другую Сторону о наступлении и прекращении действия таких обстоятельств. 10.2. Если обстоятельства непреодолимой силы будут продолжаться более одного месяца, то каждая из Сторон имеет право расторгнуть настоящей публичной оферты. В этом случае ни одна из Сторон не имеет права требовать от другой Стороны возмещения убытков, причинённых расторжением настоящей публичной оферты. В данном случае между Сторонами в срок не позднее 10 (десяти) календарных дней после принятия решения о расторжении настоящей публичной оферты производится взаиморасчёт по задолженностям, имевшим место до получения одной из них соответствующего письменного уведомления. 10.3. Не уведомление или несвоевременное уведомление лишает Сторону права ссылаться

oferta bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi sababli javobgarlikdan ozod qilish uchun yuqoridagi holatlardan foydalanish huquqidan mahrum qiladi.	на любое из вышеуказанных обстоятельств как на основание, освобождающее её, от ответственности за неисполнение обязательств по настоящей публичной оферты.
11. Ma'lumotlarni oshkor qilish va maxfiylik 11.1. FMO xizmatlarini taqdim etishda MDTFM egasi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligi kafolatlanadi. 11.2. Tomonlar shartnoma va u bilan ta'minlangan majburiyatlarning maxfiyligini ta'minlaydi va ikkinchi tomonning yozma rozilgisiz shartnomani bajarish paytida va (yoki) u bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaydi.	11. Раскрытие информации и конфиденциальность 11.1. При оказании услуг ОФД, гарантируется конфиденциальность сведений о Владелец ПОФМ. 11.2. Стороны будут обеспечивать конфиденциальность в отношении договора и предусмотренных им обязательств, и не раскроют третьим лицам никакую информацию, полученную в ходе исполнения договора и (или) в связи с ним, без письменного согласия второй Стороны.
12. Korrupsiyaga qarshi kurash 12.1. Tomonlar ularning har biri poraxo'rlik va korrupsiyaga mutlaqo toqat qilmaslik siyosatiga ega ekanligini tan oladilar va tasdiqlaydilar, bu esa korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlashni va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq rasmiyatchiliklarni soddalashtirish yoki to'lovlarni to'lashni, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni nazarda tutadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik va uning asosida ishlab chiqilgan, poraxo'rlik va tijoriy poraxo'rlik bilan kurashishga qaratilgan siyosat va tartiblarga amal qiladilar. 12.2. Tomonlar hech qanday shaxsga, shu jumladan jismoniy shaxslarga, tijorat tashkilotlariga va davlat mansabdor shaxslariga korrupsion to'lovlarni (pul yoki qimmatbaho sovg'alar) taklif qilmasliklari, taqdim etmasliklari yoki berishga rozilik bildirmasliklari va hech qanday shaxsdan so'ramasliklari, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, har qanday korrupsion to'lovlar yoki sovg'alar qabul qilimasliklari yoki qabul qilishga rozilik bermasliklari haqida kafolat beradilar. 12.3. Agar tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli tomon boshqa tomonni rasmiy aloqa kanallari orqali yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma xabarnomada tomon boshqa tomon, uning filiallari, xodimlari yoki vositachilari tomonidan ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lganligini tasdiqlovchi yoki taxmin qilish uchun asos beradigan faktlarga murojaat qilishi yoki materiallarni taqdim etishi kerak. Yozma xabarnoma asosida tegishli Tomon buzilish sodir bo'lmagani yoki	12. Борьба с коррупцией 12.1. Стороны признают и подтверждают, что каждая из них проводит политику полной нетерпимости к взяточничеству и коррупции, предполагающую полный запрет коррупционных действий и совершения выплат за содействие или выплат, целью которых является упрощение формальностей в связи с хозяйственной деятельностью, обеспечение более быстрого решения тех или иных вопросов. Стороны руководствуются в своей деятельности применимым законодательством и разработанными на его основе политиками, и процедурами, направленными на борьбу со взяточничеством и коммерческим подкупом. 12.2. Стороны гарантируют, что не будут предлагать, предоставлять или давать согласие на предоставление каких-либо коррупционных выплат (денежных средств или ценных подарков) любым лицам включая частных лиц, коммерческие организации и государственных должностных лиц, а также не будут добиваться получения, принимать или соглашаться принять от какого-либо лица, прямо или косвенно, какие-либо коррупционные выплаты или подарки. 12.3. В случае возникновения у одной из Сторон подозрений, что произошло или может произойти нарушение каких-либо положений настоящего пункта, соответствующая Сторона обязуется уведомить об этом другую Сторону в письменной форме по официальным каналам связи. В письменном уведомлении Сторона обязана сослаться на факты или предоставить материалы, подтверждающие или дающие основание предполагать, что произошло или может произойти нарушение каких-либо положений настоящего пункта другой Стороной, её аффилированными лицами, работниками или посредниками. После

ro'y bermasligi to'g'risida yozma tasdiq olguncha ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib qo'yishga haqli.	письменного уведомления, соответствующая Сторона имеет право приостановить исполнение обязательств по настоящему Соглашению до получения письменного подтверждения, что нарушения не произошло или не произойдет.
13. Boshqa shartlar 13.1. Shartnoma bajarilishi munosabati bilan savollar yuzaga kelgan hollarda, foydalanuvchi Call-markaz xizmatidan 71-202-32-32 raqami orqali foydalanishi mumkin. 13.2. Ushbu ofertada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.	13. Прочие условия 13.1. В случае возникновения вопросов в связи с исполнением договора, пользователь может воспользоваться услугой Call-центра по номеру 71-202-32-32. 13.2. Во всем остальном, не предусмотренном настоящей офертой, стороны будут руководствоваться действующим законодательством Республики Узбекистан.
14. Manzil va rekvizitlar: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi "Yangi texnologiyalar" ilmiy-axborot markazi" DUK 100096, Toshkent shahri, Muqimiy ko'chasi, 166-uy H/r:20210000100431200010 "KAPITALBANK" ATB Mirzo Ulug'bek filialida. MFO: 01018; STIR: 201589463; IFUT: 58290.	14. Адрес и реквизиты: ГУП «Научно-информационный центр "Янги технологиялар" при Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан 100096, город Ташкент, улица Муками, дом 166. Р/с: 20210000100431200010 в Мирзо Улугбекском филиале АКБ «KAPITALBANK». МФО: 01018; ИНН: 201589463; ОКЭД: 58290.
Bosh direktor  	Генеральный директор  